



TANBUR VA DUTOR SOZLARINING PAYDO BO‘LISHI VA CHOLG‘U IJROCHILIGIDAGI O‘RNI

Ramazonova O‘g‘iloy Xolmurodovna

Buxoro Davlat Universiteti "Musiqqa ijrochiligi va madaniyat" kafedrasi katta o‘qituvchisi

Irgasheva Nigora Baxodirovna

12-2vokal 20 guruh talabasi

Ma‘lumki o‘zbek xalqining og‘zaki an‘anadagi kasbiy musiqasi, xususan maqom yo‘llari yirik shaklda bo‘lib, rangba-rang doyra usullariga ega. Bu esa xonanda-yu, sozandadan yuksak mahorat va tug‘ma ritm talab etadi. O‘tmishda tanbur va dutor sozandalarining paydo bo‘lishi quyidagicha kechgan: O‘rta Osiyo musiqashunos olimlarning gullab yashnashi yirik markazlashgan davlat vujudga kelgan davrga to‘g‘ri keladi. Davlat markazi esa, Buxoro bo‘lib, uni Samoniylar sulolasi boshqargan.

Al-Forobiyning musiqiy risolalari va uning zamondoshlarining ilgari surgan fikrlari ushbu sozlar tarixini ma‘lum darajada o‘rganishga asos bo‘la oladi. Abu Abdulloh al-Xorazmiy (X asr), Mas‘ud Sheroziy (XIII – XIV asrlar), Mahmud al-Amumiy (XV), Abu Ali ibn Sino (X asr), Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, al-Husayniy, Mavlono Kavkabiy va boshqalar Farobiy risolalariga tayangan holda ijod qilib, undagi fikrlarni rivojlantirdilar. Bundan tashqari, turli davr va zamonlarda yashab ijod etgan yozuvchi va shoirlar ham cholg‘u sozlarini jumladan tanbur va dutor cholg‘ulari haqida yozib qoldirganlar. Ularning ko‘pchiligi ushbu sozlarni chalish bilan ham shug‘ullanganlar.

Adabiyotshunos va san‘atshunos olim Abdurauf Fitrat o‘tmish tanburchi va dutorchilari haqida quyidagi ma‘lumotni beradi. Uning yozishicha, Buxoro amirligi davrida amir Abdullaxadxon zamonidan Imomqulixon amirligi davrigacha mashhur bo‘lgan sozanda va musiqashunoslar quyidagilardir: dutorchi usta Mahmud Isqoq o‘g‘li, Amir Fatxiy, Mavloniy Boqiy, Zardo‘z Xojagiy, Hofiz Turdiy, Tanburchi Xoja Navro‘z, Yusuf Mavlud Dutori, Tohirjon Davlatzoda singari mashhur dutorchilarni aytadigan bo‘lsak, keyinchalik esa, Hoja Abdulaziz Samarqandiy (Rasulov), Ota G‘iyos, Hoji Abdurahmon Buxoriy, Ma‘rufjon Toshpo‘latovlarni aytib o‘tish mumkin. Keyinchalik O‘zbekistonda Turg‘un Alimatov, Jo‘rabek Saidaliev, Abdumo‘tal Abdullaev, Mahmud Tojiboev singari qator tanbur ustozlari yetishib chiqdilar. Bu borada qo‘shni Tojikiston hududidan bir qancha mohir tanburchilar yetishib chiqdi, bular qatoriga; Rasulqori Mamadaliev, Fazliddin Shahobov hamda Ma‘rufxo‘ja Bahodirovlarni zabardast tanburchilar safiga qo‘shish mumkin.

Dutor sozining zamonaviy ijrochilari quyidagilardir: Orif Qosimov, Turg‘un Alimatov, Mahmud Yunusov, Faxriddin Sodiqov, Ne‘matjon Qulabdullaev, Zokirjon Obidov, Yo‘ldosh Sayfizoda, Abdusamad Ilyosov va boshqalardir.

Garchand tarixiy – musiqiy risolalarda ijrochi ayollarning nomlari tilga olinmasa-da, asrimiz mohir ayol dutorchilarini biladi. Ular o‘z ijodiy iste‘dodlari bilan ma‘lum yuksaklikka erishganlar, o‘zbek musiqqa ijrochiligiga salmoqli hissa qo‘shganlar. Vodiyluk Lutfixonim Sarimsoqova, Mukarrama Azizova, O‘shlik Roziyaxon Hamdamova, Namanganlik Mehri Abdullaeva, Qo‘qonlik Hadyaxon Hamdamova, Karomatxon aya kabi boshqa bir qator ayol dutorchi sozandalarimizni mamnuniyat bilan tilga olishimiz mumkin. Bular o‘z davrining mohir san‘atkorlari, dovyurak ayollari bo‘libgina qolmay, asrlar osha yuzaga chiqmagan va doim yashirin tarzda faoliyat ko‘rsatgan ijrochi ayollar san‘atini dunyoga targ‘ib etuvchi fidoiy san‘atkor bo‘lganlar. Ular o‘zlarining jozibali xonishlari bilan katta Farg‘ona qurilishlarida, ikkinchi jahon urushi yillarida shikasta - ozurda qalblarni o‘z

sozlarining sehrli nololari bilan davolaganlar. Ayniqsa, 1938 yilda tashkil etilgan “dutorchi qizlar” ansambli ijrosidagi “Navbahor”, “Ey voh sanam”, “Ho layli”, “Tanovor”, “Chorzarb” kabi xalq qo‘shiq-lari yorqin asarlar sifatida xalqimiz qalbidan mustahkam o‘rin olganligini ko‘rish mumkin.

Musiqa madaniyatida ta’kidlangan ilk cholg‘ular eng qadimiy davr tarixi bilan bog‘liqdir. Zabardast olimlar tadqiqotlari natijasida milliy cholg‘ularimiz tosh - qoyalardagi haykalchalarda, terronota (loydan yasalgan odam va uning qo‘lidagi soz) larda, turli miniatyuralarda, yog‘och o‘ymakorligi va uy yumushlaridagi tasvirlar orqali bizning zamonamizgacha yetib keldi. Bunda yirik arxeolog, etnograf, tarixchi - manbashunos va san’atshunoslarning xizmati katta bo‘ldi.

O‘zbekiston va Tojikiston qadimgi davr musiqiy san’atida, milliy – an’anaviy cholg‘ularimiz qatoridan o‘rin olgan tanbur va dutor sozlari jahon ahamiyatini tobora o‘ziga jalb etib kelmoqda.

Tanbur va dutor cholg‘ulari, zamonamiz amaliyotida bir necha dilkash nomlarga ega bo‘lib, har biri o‘zgacha oila paydo qilgan, bular: yakka, ansambl, orkestr va hatto zamonamiz milliy estrada jamoalaridan joy olib, yuqori mavqe’larga ega bo‘lmoqda. Tanbur sozi tarixiga nazar solar ekanmiz, qadimda ularning ko‘p turlari mavjud bo‘lib, tanburlarning tuzilishi ham har xil bo‘lgan va ular ko‘pgina Sharq mamlakatlarida keng iste’molda bo‘lgan.

Tanbur va dutorning “Gardon” ya’ni, Grifi Mesopotomiya uslublariga o‘xshash, ya’ni eramizdan avvalgi uch minginchi yillarga tegishliligi manbalarda ko‘rsatilgan. Markaziy Osiyoda esa eramizdan oldingi IV – III asrga Pahlavoniylar tarixida tanbur va dutor sozlari haqida ham bir qator ma’lumotlar mavjud.

Tanbur turlari haqida shularni aytish mumkinki, Sharqda uning turli ko‘rinishlari bo‘yicha quyidagilarni keltirish mumkin. Masalan: Forobiy, Hirot, Bog‘dod, Xuroson va Buxoriy tanburlari qadimda iste’molda bo‘lganligi bizga tarixiy manba’lardan ma’lum. Allomalarimiz al-Forobiyning “Kitobul musiqiy al-Kabir” Ibn Sinoning “Nuqtadoi Jolibiy”, Abdulqodir Marog‘iyning “Maqosid al-alhon”, “Ja’mi alhon” kabi risolalarida tanbur va dutor haqida qimmatli ma’lumotlar keltirilganki, bu yuqorida aytgan fikrlarimizning yaqqol dalili bo‘lib xizmat qiladi.

Musiqashunos Amuliy asarlarida Shirvoniy va Turk tanburlarining nomlari tilga olinadi. Bundan tashqari u kamon – smichok bilan chalinadigan tanburi – nayi, ya’ni Sato sozi haqida xabar boradi.

Tanbur sozining keng qamrovda ma’lum darajada baland mavqega ega bo‘lish davri asosan XVI – XVII asrlar hisoblanadi, bu esa temuriylar hukmronligi davriga to‘g‘ri keladi.

Tanbur sozining lug‘aviy ma’nosi Buxorolik yirik musiqashunos Darvishali Changiy ta’kidlaganidek, tan – yurak, bura – tebratish, larza ma’nolarini bildirib, inson yuragini larzaga soluvchi soz demakdir.

Tanbur sozining torlari dastlab ikkita bo‘lgan bo‘lib, hozirda unga yana bitta tor qo‘shilgan. Eron tanburlari uchta va hatto beshta tordan iborat bo‘ladi.

Keyingi davrda tanbur sozini mashhur musiqashunoslar Fayzulla Karomatov, B.Sharoshi, O.Boyko, I.Nizomiy, Murodullo Abdukarimov, A.Petrosyais, Usta Usmon Zufarovlar tadqiq qildilar.

Jahon tarixi va tasvirlardagi ko‘rinishlar orqali o‘z badiiyligi bilan bizgacha yetib kelgan cholg‘ular haqida talaygina ma’lumotlar mavjud. Yuqorida aytib o‘tkanimizdek, tanbur sozining juda ko‘p turlari mavjud. Bular, tanbur kato, setor, chortor, panjtor, shishtor, sitor turlaridir. Hindlarda “Tanpura” nomli tanbursimon sozlar ham mavjud. Ular Xuroson, Eron, Buxoro, Bog‘dod, Badaxshon nomlari bilan mashhur. Tanbur va unga munosib cholg‘ularda turli xil o‘ziga xos musiqiy asarlarni ijro etish mumkin. Lekin tanbur sozi asosan xalq kuylari va Shashmaqom mushkilotlarini ijro etishga hamda mumtoz ashulalarga jo‘rnavoz bo‘lish uchun mo‘ljallangandir. Uning bunday imkoniyatlarini tadqiqotchilar T.Vizgo, G.Pugachenkova, I.Rajabov, S.Paxalovlar asoslab berdilar.

Tanbur cholg‘usining tipologik genezisi haqida uning ilmda alohida tadqiqotlarga mansubligini L.G.Koval va boshqa olimlar o‘z tadqiqotlarida aytib o‘tdilar. Keyingi yillarda o‘zbek va tojik milliy musiqasi va milliy sozlari haqida yirik monografik asarlar yaratilmoqdaki, bu milliy musiqamiz va sozlarimiz tarixini o‘rganishda muhim rol o‘ynamoqda.

Jumladan, Fayzulla Karomatov va N.Nurjonovlar tomonidan yaratilgan “Badaxshon bodasining (Pomir) milliy musiqasi va cholg‘ulari” kitobi bunga misol bo‘la oladi. Ushbu asarda tanbur va dutor haqida ham keng ma‘lumotlar berilgan.

Bizga ma‘lumki, milliy sozlarimizning sof va jarangdor ovoz chiqarishi uning yasash texnologiyasi bilan ham bog‘liqdir. Markaziy Osiyoda, jumladan, O‘zbekistonning qator vohalarida ham soz yasovchi ustalar tomonidan ustoz-shogird tarzida turli xil milliy sozlarni yasab sozandalarga in‘om etib kelmoqdalar. XIX asr oxirida tanbur sozini yasashda asosan ikki nomdor usta faoliyat ko‘rsatib keldilar. Bular, buxorolik Usta Tohir (1883 - 1953) va toshkentlik Usta Usmon Zufarov (1892 – 1980) edilar. Ushbu ustalar milliy sozlarni yaratishda o‘ziga xos maktab tashkil qildilar, desak adashmaymiz. Usta Tohirning - Usta Abduxoliq (Qori qutti), Samarqandda Usta O‘rin singari shogirdlarni yetishtirgan bo‘lsa, Usta Usmon Zufarov - Usta Xirojiddin, Usta To‘xtamurod, Usta Muhammadsiddiq, Usta Faxriddin, Usta Nabi kabi o‘nlab shogirdlarga murabbiylik qildi.

Milliy sozlarni yasovchi ustalardan katta mahorat va sabr – toqat talab qilingan. Ular bir cholg‘uni yasashda uzoq yillar uringan paytlar ham bo‘lganini, ustalar bilan bo‘lgan suhbatlar-dan angladik (Buxorolik usta K.Muqimov bilan bo‘lgan suhbatdan). Soz yasovchi ustalar asbob xom ashyosiga (yog‘ochiga) ko‘p e‘tibor berganlar va unga juda ehtiyotkorlik bilan yondashganlar. Ustalar yog‘ochni tayyorlashda uni quyosh tafti, shamol, yomg‘ir, suv, qor, namlik va tuproq ta‘siri, hasharotlardan asrash uchun maxsus qorong‘u uyda saqlab kelganlar. O‘rik va tut yog‘ochini tanlashda o‘rikning danagi shirin bo‘lishi, tut yog‘ochida esa tut shirin va serhosilligiga e‘tibor berilgan. Cholg‘u yasash uchun yog‘ochni besh yildan yigirma yil muddatda saqlab kelganlar. Shunday qilib tanbur sozini yasashda quyidagi texnologiya qo‘llangan.

1. Rezanatorli korpus (Kosa xona)
2. Dasta (Grif)
3. Bo‘g‘iz, gardan
4. Qopqoq, zarpo‘sh (deka)
5. Torgir (Sim saqlovchi ilgaklar)
6. Quloqlar
7. Shaytonxarrak
8. Pardalar
9. Torlar (Simlar)
10. Xarrak
11. Noxun, zaxma

Endi shu o‘rinda bugunlik kunda iste‘molda bo‘lgan tanbur cholg‘u sozining sur‘atini keltiramiz:



1950 yilda akademik Yunus Rajabiy mohir tanburchi Turg‘un Alimatovga tanburni kamon orqali chalishni taklif etib, “Tanbur – sato” keyinchalik “Sato” nomi bilan ataladigan sozni ijrochiligimizda qo‘llagan edilar. (Lekin tanburni kamon bilan chalish Buxoroda XIX acrnig oxirida rasm bo‘lgani manbalarda ko‘rsatilgan). “Sato” sozi kamon bilan chalish uchun yasaladi. Uni tanburdek ijro etish (ya‘ni noxun bilan) mushkulroq, chunki uning xarragi tanburnikidan ancha balanddir.

O‘rta asr olimi Mahmud ash-Sheroziy XII asrlarda yozilgan risolasida tanburga o‘xshash kamon bilan chalinadigan “Kamoncha” nomi bilan mashhur bo‘lgan cholg‘u haqida ham yozadi. Bizning nazarimizda bu sato cholg‘u sozi bo‘lishi ham mumkin (N.Z.). shu o‘rinda sato cholg‘u sozining sur‘atini keltirishni joiz ko‘rdik.



Tanbur milliy sozlar qatorida alohida nufuzga ega bo'lgan cholg'u asbobidir, chunki bu sozning zavqli va mungli ovozi tinglovchini befarq qoldirmaydi, ayniqsa dutor bilan jo'r bo'lsa, undan bir dunyo ma'no va huzur olish mumkin. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, o'tmishda tanburning ko'p turlari mavjud bo'lib, shulardan biri X asrgacha qo'llanilgan Bag'dod tanburidir. Bag'dod tanburining pardalari va hajmi (uzunligi) hozirgi o'zbek – tojik tanburidan qisqa va kichik bo'lganligi uchun keyinchalik cholg'ular qatoridan tushib qolgan. Bundan tashqari o'tmishda Xuroson, Hind va Afg'on tanburlari mavjud bo'lganki, ularning ayrimlaridan bugungi kunda ham foydalanilmoqda.

Sharq tanburidan bizgacha saqlanib qolgani bu setor sozidir. Setor ham kamon bilan chalinadigan cholg'u asbobidir.

O'zbek tanburining dastlab uch tori bo'lgan, keyinchalik unga yana bir tor qo'shib, uni kamon bilan chalinadigan sato atalmish sozga aylantirgan. Tanbur (an'anaviy turi) 16 - 19 ichak pardadan iborat bo'lib, unga yana 3 - 4 parda dastasiga qo'shimcha tarzda yopishtiriladi.

Tanbur ko'p holda yakka ijrodan tashqari maqom ashula sho'balari va mumtoz qo'shiqlarimizga jo'rnavozlik qiladi. Tanbur sozi Shashmaqom qismlarini ijro etishi jarayonida turlicha sozlanish xususiyatiga egadir. Masalan, "Rost" maqomi uchun tanburni birinchi va uchinchi torlari bir xil, o'rta tor esa besh parda past tovushga sozlanadi, "Buzruk", "Dugoh", "Iroq" maqomlarida o'rta tori to'rt parda past tovushga sozlanadi. "Navo" va "Segoh" maqomlari uchun bir parda pastga sozlanadi. Tanbur sozini har xil sozlashning boisi maqomlarni chalishda qulaylik yaratishdir. O'zbekiston, Tojikiston va uyg'urlarda tanbur juda e'zozli tor hisoblanadi. Rivoyatlarga ko'ra, ulug' mutafakkir Abu Ali ibn Sino ko'proq tanbur chalib orom olgan. Tanburning chalish usullari ham turlicha bo'lib, ular; rez, teskari zarb, terma va pirrang yo'llari shunga kiradi. Oxirgi ikki yo'lni mashhur tanburchilar Ma'rufjon Toshpo'latov va Turg'un Alimatovlar ko'proq ishlatadilar. Shashmaqom sho'balarini tanbursiz tasavvur qilish qiyin. Yakkanavozlikda tanburdan chiqqan sado bulbulni ham lol qoldiradi, degan rivoyat bor xalqimizda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Kholmuradovna R. U., Obidovna R. M. Social norms, sanctions and personality //Вестник науки и образования. – 2020. – №. 21-2 (99). – С. 115-118.
2. Рамазонова У. Х., Сайфуллаева О. М. Развитие чувства ритма у детей //Проблемы науки. – 2021. – №. 1 (60). – С. 49-51.
3. Ramazonova U. X., Esanova M. J. An'anaviy xonandalik rivojida maqomlarning o'rni //Science and Education. – 2022. – T. 3. – №. 1. – С. 496-501..
4. Ramazonova O. K., qizi Mustaqimova G. G. Formation and Development of National Musical Traditions //european journal of innovation in nonformal education. – 2022. – T. file:///C:/Users/user/Downloads/Telegram Desktop/Бехруз Болтаев (2).rtf2. – №. 1. – С. 336-339
5. Kholmurodovna U. R. Formation of publicistic performing skills in singing. – 2021.O
6. Hamidovich B. B. INTERPRETATION OF THE METHODS OF BUKHARA SHASHMAKOM AND THE FUNDAMENTALS OF MAKOM //Academia Science Repository. – 2023. – T. 4. – №. 04. – С. 1063-1066.
7. Hamidovich B. B. AL-FARABI AND IBN SINA'S CLASSIFICATION OF THE FOUNDATIONS OF THE THEORY OF" IYKUT" METHODS IN ORIENTAL MUSIC EDUCATION //Academia Science Repository. – 2023. – T. 4. – №. 04. – С. 102-104.
8. Boltayev B. H. O 'ZBEK MILLIY QO 'SHIQCHILIGINING QADR TOPISH XUSUSIYATLARI //Journal of Universal Science Research. – 2023. – T. 1. – №. 12. – С. 312-318.

9. Mustafoyev B. TA'LIM ISLOHOTLARI MAZMUNIDA YOSH AVLOD MUSIQA MADANIYATI TARBIYASI //TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN. – 2023. – Т. 1. – №. 4. – С. 60-66.
10. Rajabov T. I., Ibodov O. R. O'zbek Xalq Musiqa Merosda O'quvchilarni Vatanparvalik Ruhida Tarbiyalash Vositasi //IJTIMOIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2021. – Т. 1. – №. 6. – С. 139-145.
11. Ortiqov O. R. MA'NAVIY-MA'RIFIY ISHLAR JARAYONIDA MAFKURAVIY IMMUNITETNI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI (OLIY TA'LIM MUSSASALARI MISOLIDA) //Экономика и социум. – 2022. – №. 3-2 (94). – С. 1130-1135.
12. Ortiqov O. R. MA'NAVIY-MA'RIFIY ISHLAR JARAYONIDA MAFKURAVIY IMMUNITETNI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI (OLIY TA'LIM MUSSASALARI MISOLIDA) //Экономика и социум. – 2022. – №. 3-2 (94). – С. 1130-1135.
13. Ortiqov O. R. TALABALAR MA'NAVIY AXLOQIY FAZILATLARINI SHAKLLANTIRISHDA “QOBUSNOMA” ASARIDAN FOYDALANISH //Conferencea. – 2023. – С. 1-5.
14. Ortiqov O. R. O'QITUVCHI FAOLIYATIDA PEDAGOGIK DEONTOLOGIYA VA KOMPENTLIKNING ROLI VA AHAMIYATI //Scientific progress. – 2021. – Т. 2. – №. 5. – С. 42-47.
15. Жураев Б. Т., Абдурахмонова Д. У. Эстетическое развитие школьников средствами узбекского музыкального фольклора //Вестник Чувашского государственного института культуры и искусств. – 2019. – №. 14. – С. 77.
16. Жураев Б. Т. Социально-духовное развитие студентов //Россия-Узбекистан. Международные образовательные и социально-культурные технологии: векторы развития. – 2019. – С. 22-23.
17. Умурова М. Ё. The importance of using pedagogical technologies in special educational schools //Вестник науки и образования. – 2020. – №. 22-2. – С. 24-26.
18. Умурова М. Ё. РОЛЬ ТРУДОВЫХ ПЕСЕН В ФОЛЬКЛОРЕ //Miasto Przyszłości. – 2023. – Т. 43. – С. 97-101.
19. Umurova M. Y. Practical Possibilities of Spiritual-Moral Formation through Folk Songs //Procedia of Philosophical and Pedagogical Sciences ISSN. – Т. 2795. – №. 546X. – С. 55.